

Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

RAQAMLAR

6147,9 mlrd.so'm
Sanoat ishlab chiqarish
hajmi

112,0 %
sanoat ishlab chiqarish
indeksi

3917,5 mlrd.so'm
Iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi

124,9 %
o'sish sur'ati

63,7 %
Iste'mol tovarlarining jami
sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi


35,6 %
sanoat ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6147,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 112,0 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 10,6 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 12,0 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 28,6 % ni tashkil qildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 10,4 % ga, o'sishi kuzatildi.



2019 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



2018 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,0066 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5836,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,9 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 42,0 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 17,4 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 14,3 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 42,0 %









To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 17,4 %



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 14,3 %

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Mahsulot turlari		<i>2019 yil yanvar-sentabr</i>	<i>2018 yil yanvar- sentabr</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		446,3	126,5
Issqlik energiyasi – ming Gkal.		72,1	87,6
Engil avtomobillar		36836	23701
Yuk avtomobillari – dona		5372	5351
Aroq – ming litr		793,0	1124,0
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		16,2	14,1
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr		889,0	910,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		59367,8	55371,9
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.		0	119,3

Mahsulot turlari		<i>2019 yil yanvar-sentabr</i>	<i>2018 yil yanvar- sentabr</i>
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		1229,1	1211,4
Milliy non (yopgan non) – tonna		629,8	135,8
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		10566,2	12915,6
Xo'jalik sovuni – tonna		4670	6118
Paxta tolasi –tonna		38497,8	49422,0
Paxta chigiti-tonna		60729,1	76264,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Aroq 331 ming litrga;
2. Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 21 ming litrga;
3. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
4. Tozalangan o'simlik yog'i 2349,4 tonnaga;
5. Paxta tolasi 10924,2 tonnaga;
6. Paxta chigiti 15534,9 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 270,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 128,6 % ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 67,2 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish 32,2 % ni tashkil etdi.




2019 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 46,6 foiz, Urganch shahri 23,6 foiz, Xonqa 5,6 foiz, Shovot 4,2 foiz, Gurlan tumani 4,0 foizni va Bog'ot 3,0 foiz hamda eng past bo'lgan Qo'shko'pir tumani 1,7 foiz, Xiva tumani 1,6 foiz va Xiva shahri 1,4 foizni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




2019 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari	2019 yil yanvar-sentabr	2018 yil yanvar-sentabr
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	6147,9	4212,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,4	0,3
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,4	0,3
Qayta ishlash faoliyati	5836,6	4047,0
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	877,6	717,6
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	194,6	156,4
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1152,6	911,5
Kiyim ishlab chiqarish	21,0	45,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	7,1	4,8
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	7,0	3,7
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	14,7	13,3
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,7	0,7
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,3	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	19,6	11,1
Asosiy farmasevtika	5,1	5,4
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	74,1	59,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	265,0	175,0
Metallurgiya sanoati	25,6	8,1
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	123,4	112,2
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,2
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	26,4	23,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	304,5	151,9


Iqtisodiy faoliyat turlari	2019 yil yanvar-sentabr	2018 yil yanvar-sentabr
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	2582,2	1522,9
Mebel ishlab chiqarish	24,7	17,8
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	93,3	94,3
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	16,8	11,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	270,9	129,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	40,1	35,4

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-sentabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.




Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-sentabr oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 40,6 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-sentabr oylarida bu ko'rsatkich 47,7 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 8,7 foizdan 8,2 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 46,7 foizdan 38,9 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 5,3 mlrd.so'mlik (2018 yil yanvar-sentabr oylarida 5,6 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 2932,7 mlrd.so'mlik (1709,5 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 505,3 mlrd.so'mlik (366,6 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 2393,3 mlrd.so'mlik (1965,4 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




2018 yil yanvar- sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3330,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 110,1 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-sentabr oylarida Xazorasp tumani 6949,4 ming so'mdan 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 11705,7 ming so'mga, Urganch shahri 6804,8 ming so'mdan 10181,7 ming so'mga, Xonqa tumani 1359,1 ming so'mdan 1864,2 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


2019 yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 3917,5 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 124,9 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 924,6 mlrd.so'mni va 2992,9 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 105,9 foiz va 132,3 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 63,7 foizni (2018 yil yanvar-sentabr oylarida 68,5 foiz) tashkil qildi.


2019 yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2122,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 122,8 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-sentabr oylarida Xazorasp tumani 5821,2 ming so'mdan 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 9475,9 ming so'mga, Urganch shahri 3911,0 ming so'mdan 4341,9 ming so'mga, Gurlan tumani 453,0 ming so'mdan 832,3 ming so'mga Urganch tumani 542,7 ming so'mdan 725,1 ming so'mga o'sgani kuzatildi.